TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHLASHNING HUQUQIY ASOSLARI QANDAY?

Azimova Sevara Azizxon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi
fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24337983

Biznes boshlamoqchi bo‘lgan odam odatda uch savolga javob izlaydi: mahsulotni kimga sotaman, pulni qayerdan olaman, joyni qayerdan topaman. To‘rtinchi savol ko‘pincha kechikib beriladi: bu ish bilan shug‘ullanishga huquqim bormi? Javobni kech izlagan tadbirkor ba’zan jarima bilan, yoki ba’zida o‘z faoliyatini to‘xtatishi bilan to‘laydi.

Konstitutsiyaning 67-moddasiga ko‘ra, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi, tadbirkorlar esa qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va uning yo‘nalishlarini mustaqil tanlashga haqli. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun tadbirkorlikni o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat deb ta’riflaydi. Bu ta’rifdagi ikki so‘z, ya’ni tavakkal va javobgarlik muhim. Chunki huquqiy talablarni bilmaslik tavakkalni oshiradi, javobgarlikni esa kamaytirmaydi.

Shuning uchun faoliyat yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishdan boshlanishi zarur. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan tartib 2017-yil 1-apreldan ishga tushgan va ro‘yxatdan o‘tish avtomatlashtirilgan tizim orqali o‘ttiz daqiqagacha qisqartirish imkonini berilgan. Ariza davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali beriladi.

Ro‘yxatdan o‘tish hamma narsaga ruxsat degani emas. Ayrim faoliyat turlari uchun davlat qo‘shimcha shart qo‘yadi. Bu shartlar 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ-701-son Qonunda tartibga solingan.

Shunidek ushbu qonunning 3-moddasi uch xil turli tushunchalarni farqlaydi.

Litsenziya litsenziyalanadigan faoliyat turini litsenziya talab va shartlariga rioya etgan holda amalga oshirish huquqini beradigan hujjatdir. U odatda inson hayoti, sog‘lig‘i yoki jamoat xavfsizligiga ta’sir qiladigan sohalarda talab etiladi. Tibbiyot va farmatsevtika faoliyati shular jumlasidan.

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat muayyan harakatni yoki faoliyatni amalga oshirishga beriladigan ruxsatnoma, kelishuv yoki xulosadir. Masalan, xavfli yuklarni tashiydigan transport vositasi uchun shunday hujjat rasmiylashtiriladi.

Xabarnoma eng yengil tartib. Tadbirkor vakolatli organdan ruxsat kutmaydi, balki faoliyatni boshlagani yoki tugatgani haqida uni xabardor qiladi.

Qaysi faoliyat qaysi tartibga tushishi Qonunning ilovalaridagi ro‘yxatlarda belgilangan. Ro‘yxatda yo‘q faoliyat uchun litsenziya yoki ruxsatnoma talab qilishga hech kim haqli emas.

Qonunning 4-moddasidasida esa qonuniylik, ochiqlik, shaffoflik va “yagona darcha” prinsiplari mustahkamlangan. Amalda bu shuni anglatadiki, tadbirkor idorama-idora yurmaydi. Ariza esa “Litsenziya” axborot tizimi (license.gov.uz) orqali elektron shaklda beriladi (8-modda). Vakolatli organ arizani, qoida tariqasida, yigirma ish kuni ichida ko‘rib chiqishi kerak (28-modda). Litsenziya, qoida tariqasida, muddatsiz beriladi. Tibbiyot va farmatsevtika kabi ayrim sohalarda muddat belgilanishi mumkin, lekin u besh yildan kam bo‘lmaydi (16-modda).

Qonunga keyinchalik kiritilgan 28[1]-modda “Biznesga litsenziyasiz kirish” maxsus rejimini nazarda tutadi. Unga ko‘ra, tadbirkor ayrim faoliyat turlarini vakolatli organni elektron shaklda xabardor qilgan holda, litsenziya yoki ruxsatnomani kutmasdan boshlashi mumkin. Rejim uch oygacha amal qiladi. Shu muddat ichida tadbirkor hujjatni olishi yoki faoliyatni to‘xtatishi shart.

Litsenziyasiz, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoki xabarnoma yubormasdan faoliyat yuritish uchun javobgarlik Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 165-moddasida, og‘irroq holatlar uchun Jinoyat kodeksining 190-moddasida belgilangan. Bundan tashqari, litsenziya shartlari buzilsa, hujjatning amal qilishi to‘xtatib turilishi yoki tugatilishi mumkin. Mijoz uchun ham bu befarq masala emas: kontragentning litsenziyasi bor-yo‘qligini ochiq reyestrdan tekshirish bitim xavfini kamaytiradi.

Yozef Shumpeter tadbirkorni iqtisodiyotga yangilik olib kiruvchi kuch deb ta’riflagan. Yangilik esa bozorga kirish oson bo‘lgan joyda ko‘payadi. Simeon Jankov va hammualliflari 2002-yilda 85 mamlakatda biznes ochish tartibini taqqoslab, bozorga kirish qoidalari og‘ir bo‘lgan davlatlarda mahsulot sifati yaxshiroq emasligini, korrupsiya va norasmiy iqtisodiyot ulushi esa yuqoriroq ekanini aniqlagan. Peru iqtisodchisi Ernando de Soto ham shunga yaqin fikrni ilgari suradi: rasmiylashtirish qimmat va murakkab bo‘lsa, odamlar “soya”da qoladi, soyadagi mulk va biznes esa kredit ham, himoya ham ola olmaydi.

O‘zbekistondagi islohotlar mantiqi shu xulosalarga mos keladi. 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son Farmon bilan litsenziya va ruxsatnomalarning bir qismi bekor qilindi, bir qismi xabardor qilish tartibiga o‘tkazildi, rasmiylashtirish muddatlari qisqartirildi. 2021-yilgi Qonun esa uch tartibni yagona hujjatga jamladi.

Tadbirkor uchun amaliy xulosa oddiy. Faoliyatni boshlashdan oldin uch narsani tekshirish kerak: tanlangan faoliyat turi Qonun ilovalaridagi ro‘yxatlarning qaysi biriga kiradi, unga qanday talab va shartlar qo‘yilgan, ariza qaysi organga beriladi. Bu ish atiga bir kun vaqtni oladi, lekin buni tekshirmaslikning oqibati esa ancha baland bo‘ladi.